

## **Qizil O‘zbekiston**

Gazetamizga “Qizil O‘zbekiston” deb ot qo‘ydiq. Gazetamizni shunday otoshimiz qo‘qisdan bo‘lmasdan, buning ostida chuqur tarixi tilagimiz berkinib turadir. Bu tilagimiz nimadan iborat va dunyog‘a kelayotg‘on gazetamizda qandoy xarakat chizig‘i bo‘ladir? O‘zbek millati hanuz butun ma’nosи bilan tuzilishi so‘ngg‘ig‘a yetkan mustaqil bir millat tusini olg‘oni yo‘q, balki bizning asrimizda bu millat, o‘zbek milliy tuzilishi g‘ovg‘osini kechirmakdadir, ayniqsa bu tuzilishi uktabr o‘zgarishidan so‘ng, yetti choqirimliq odum bilan ilgari qorob ketmakda.

Tarix g‘ildiragi bo‘lg‘on o‘zgarish davrida xalq turmushining har tomoni shoshilib yuksaladir. Demak, o‘zbek millatining milliy tuzilishi yonida bu millatning mexnatlash sinfida sinfiy ong o‘sib, o‘zbek ishchi dehqon xukumati orqoliq moddiy mavqeini kundan kunga maxkamlamakdadir.

O‘zgarishning 7 yilida O‘rta Osiyoda bo‘lg‘on milliy va mamlakat chegaralanish o‘zga millatlar qotorida o‘zbek millatida ham milliy, madaniy va sinfiy ojrolishg‘o yangi saxifa ochdi. O‘rta Osiyo jumhuriyatlaridan milliy va mamlakat chegaralanishlaridan tug‘ilg‘on O‘zbekiston jumhuriyatini, firqaning milliy siyosatining mevasi bo‘lib, bu tarixiy voqeа – bir turli fikrlarga qorshi shubhasiz olding‘o jilishdan iboratdir.

Turkiston ijtimoiy sho‘rolar jumhuriyatini Yovrupo mustamlakachiligining zarbasiga qottig‘ qolg‘on bo‘lishi bilan birga sharq mazlumlarining iborat qoroshlarig‘a buyuk o‘rnak bo‘ladir. Kommunist firqasining raxbarligi ostida, necha jumhuriatlarga torqolib ketgan o‘zbek millatining bir mamlakatga to‘planib, kuchlik bir mamlakat tuzishga tashabbus qilishi do‘stlar uchun ham dashmanlar uchun ham buyuk va achchiq bir xaqiqat bo‘ldi.

Bu kun bunday ulug‘ xodisaning boshlanishi munosabati bilan o‘z baxtiga yetilguchi o‘zbek mexnatkashlari o‘zga millat mexnatkashlarning sevinish – olqishlari bilan xayytlamakchi bo‘ladir.

Agar tuzilib yotqon O‘zbekiston sho‘rolar jumhuriyatining, deganimizdek toshqi ahamiyati yana zo‘rroqdir, chunki har qanday mamlakatning ichki kuchi va toshqi tasiri uning ichki xayotining kuchiga bog‘liq bo‘lar. bunday bo‘lg‘ondan so‘ng, O‘zbekiston ishchi-dehqonlar mamlakatining tuzilishidagi katta va keng tilaklari bu yosh jumhuriyatning ichki turmushini munosib qilib yashatish bizning vositasiz qiyin vazifamizdir.

O‘zbekiston sho‘rolar mamlakatining oldida birinchi yerni ishg‘ol qildirg‘on masala, bizingcha qorong‘i xalqni bola-chaqasi bilan yoritish ishlaridir. O‘zbekistonning xo‘jaliq ishlari O‘rta Osiyodagi bo‘lak millatlar xo‘jalig‘idan kattarak va boyroq bo‘lishi buni tuzatish va yuksaltirish uchun tabiiy bilimlik, kuch va qottig‘ tashkilotni so‘raydir. Demak xo‘jaliq ishimiz qoncha muhim va og‘ir bo‘lmasin, ongsiz qorongg‘i xalq orosida iqtisodiy turmush hamma vaqt kuchsiz va tartibsiz bo‘ladir.

Endi, bizga ma’lum bo‘ldiki oldimizda ikki turli asosiy masala turadirki, o‘qish va o‘qutish va mamlakatni iqtisodiy tomondan ilgari sud rash! Bu ikki asosiy

vazifani ado qilmoq uchun birinchi galda mamlakatimizning va undagi ishchi va dehqonlar yo‘lboshchisi bo‘lg‘on firqamiz axvoliga boqayliq. O‘zbekiston firqasiga boqsoq, uning ichki va toshqi ko‘rinishi ko‘b g‘ayratni ko‘b ishni so‘rab turadir. Shunga o‘xhash kengashlar muassasalarning ostlari g‘oyatda kuchsiz bo‘lub, muzlab qolg‘onlar; bunga o‘xhash ichki kamchiliklar O‘zbekiston sho‘rolar jumhuriyatida oz emas. Lekin, bu kamchiliklar bizni qo‘rqita bilmaydi va ruximizni tushurmaydi. Bu kun buyuk ishga qottiq va sog‘lom asos qo‘yilg‘on kunlarda va bu asosga tebranib turub oq yo‘limizdag‘i har qandoy qora tusiqlarg‘a g‘alaba qilishimizg‘a hech shubha yo‘q. Mana bu dahshatlik tarixiy kurashda ilgari mazlum bo‘lg‘on xozirda chiroqliq baxtning chirog‘ini uzoqdan kshrib turg‘on o‘zbek mexnatkashlarining g‘olib chiqishi yo‘lida “Qizil O‘zbekiston” bel bog‘ladi.

*Usmonxon. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1924 yil 1-son.*